

DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL COMPETENCE THROUGH WORKING WITH RECYCLED MATERIALS

Murotqobilova Mahliyo Anvar qizi

Teacher of the Department

“Preschool, Primary and Special Education Methods”

Samarkand Regional Center for Pedagogical Skills

Abstract

This article highlights the pedagogical importance of using recyclable materials in developing ecological competence in preschool children. It also analyzes the role of creative activities, practical exercises and non-traditional methods in the formation of children's thinking and ecological awareness in the process of ecological education. The article describes methods for forming a careful attitude to nature in children through the use of plastic, paper, cardboard, fabric and natural materials. In addition, the educational and educational potential of application, eco-landscape, construction and visual activity classes based on recyclable materials is revealed.

Keywords: Ecological competence, ecological education, recycling, waste, creative activity, preschool education, ecological awareness, practical exercise.

Introduction

QAYTA ISHLANADIGAN MATERIALLAR BILAN ISHLASH ORQALI EKOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH.

Murotqobilova Mahliyo Anvar qizi

Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi

“Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari”

kafedra o‘qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishda qayta ishlanadigan materiallardan foydalanishning pedagogik

ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ekologik tarbiya jarayonida ijodiy faoliyat, amaliy mashg'ulotlar va noan'anaviy metodlarning bolalar tafakkuri hamda ekologik ongini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Maqolada plastik, qog'oz, karton, mato va tabiiy materiallardan foydalanish orqali bolalarda tabiatga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish usullari bayon etilgan. Bundan tashqari, qayta ishlanadigan materiallar asosida tashkil etilgan applikasiya, ekolandshaft, konstruksiyalash va tasviriy faoliyat mashg'ulotlarining ta'limiy hamda tarbiyaviy imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ekologik kompetentlik, ekologik tarbiya, qayta ishlash, chiqindilar, ijodiy faoliyat, maktabgacha ta'lim, ekologik ong, amaliy mashg'ulot.

РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПОСРЕДСТВОМ РАБОТЫ С ПЕРЕРАБОТАННЫМИ МАТЕРИАЛАМИ.

Аннотация:

В данной статье подчеркивается педагогическая значимость использования перерабатываемых материалов в развитии экологической компетентности у детей дошкольного возраста. Также анализируется роль творческих занятий, практических упражнений и нетрадиционных методов в формировании мышления и экологического сознания детей в процессе экологического воспитания. В статье описаны методы формирования у детей бережного отношения к природе с использованием пластика, бумаги, картона, ткани и природных материалов. Кроме того, раскрывается образовательный и воспитательный потенциал прикладных, экolandшафтных, строительных и наглядных занятий на основе перерабатываемых материалов.

Ключевые слова: экологическая компетентность, экологическое воспитание, переработка, отходы, творческая деятельность, дошкольное образование, экологическое сознание, практическое обучение.

Kirish

So'nggi yillarda O'zbekistonda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz tomonidan ekologik

barqarorlikni ta'minlash, yashil hududlarni kengaytirish, chiqindilarni kamaytirish hamda aholining ekologik madaniyatini oshirish bo'yicha bir qator qonunlar, farmonlar va qarorlar qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid farmonida ekologik muhitni yaxshilash, yashil hududlarni ko'paytirish va aholining ekologik turmush tarzini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan eng yirik ekologik loyihalardan biri — Yashil makon hisoblanadi. Ushbu loyiha doirasida millionlab daraxt ko'chatlari ekilib, shahar va qishloqlarning ekologik holatini yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. 2025-yil uchun davlat dasturida 200 million tup daraxt ekish hamda Orol hududida keng yashil maydonlar yaratish rejalashtirilgani ta'kidlangan. Shuningdek, ekologik sertifikatlashtirish tizimini rivojlantirish maqsadida "Yashil sertifikat" tizimi joriy qilindi. Ushbu tizim ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining ekologik xavfsizligini nazorat qilishga xizmat qiladi. O'zbekistonda ekologik madaniyatni rivojlantirish va tabiatni muhofaza qilish sohasida faol ishtirok etayotgan mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ekolog" faxriy unvoni ta'sis etildi. Mazkur tashabbus ekologik sohada faoliyat olib borayotgan pedagoglar, ekofaollar va mutaxassislarning mehnatini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, atrof-muhitni muhofaza qilishni boshqarish tizimini takomillashtirish, iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish hamda cho'llanishga qarshi kurashish bo'yicha yangi davlat tizimlari shakllantirilmoqda. Mazkur ekologik islohotlar maktabgacha ta'lim tizimida ham ekologik kompetentlikni rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu sababli bolalarda ekologik ongni shakllantirish, qayta ishlanadigan materiallardan foydalanishga o'rgatish hamda tabiatga ehtiyotkorona munosabatni rivojlantirish bugungi kunning muhim pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ekologik muammolar butun dunyo miqyosida dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi, chiqindilar hajmining ortishi hamda ekologik muvozanatning buzilishi insoniyat oldiga muhim vazifalarni qo'yimoqda. Ayniqsa, maishiy chiqindilar sonining ko'payishi tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli ekologik madaniyatni shakllantirish va ekologik savodxonlikni oshirish bugungi ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ekologik tarbiya insonda tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va

mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi. Bu jarayonni bolalik davridan boshlash esa yanada samarali natija beradi. Chunki maktabgacha yosh davri bolaning dunyoqarashi, tafakkuri, xulq-atvori va qadriyatlari shakllanadigan eng muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarda tabiatga mehr, o'simlik va hayvonot olamiga qiziqish, ekologik muammolar haqida dastlabki tushunchalar shakllanadi.

Asosiy qism

Kompetentlik — shaxsning muayyan faoliyat turini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka hamda amaliy tajribani integrallashgan holda qo'llay olish qobiliyatidir. Pedagogik nuqtai nazardan, kompetentlik faqat nazariy bilimlarni egallash emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda maqsadga muvofiq ravishda qo'llashni ham nazarda tutadi. “Kompetentlik” atamasi lotincha “**competens**” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “mos keluvchi”, “layoqatli”, “qobiliyatli” degan ma'nolarni anglatadi. Ekologik kompetentlik esa shaxsning tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni anglash, ekologik muammolarni tushunish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan mas'uliyatli xatti-harakatlarni namoyon etish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. U ekologik bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lashga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim jarayonida ekologik kompetentlikni shakllantirish bolalarda ekologik madaniyat, tabiatga ehtiyotkorona munosabat va ekologik mas'uliyatni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Bu jarayonda qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Qayta ishlanadigan materiallar — qayta foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan resurslar bo'lib, ularga plastik, qog'oz, karton, mato va tabiiy materiallar kiradi. Qayta ishlanadigan materiallar bilan ishlash orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirish ekologik tarbiya samaradorligini oshirish hamda ularda tabiatga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirishning muhim pedagogik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu materiallardan turli buyumlar, o'yinchoqlar, applikatsiyalar va dekorativ kompozitsiyalar yaratish bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish bilan birga ekologik madaniyatni ham shakllantiradi. Bolalar oddiy chiqindidan yangi buyum yaratish orqali tejamkorlik, estetik did va mehnatsevarlik ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Shuningdek, qayta ishlanadigan materiallar bilan ishlash bolalarning mayda motorikasini, tasavvurini, mustaqil

fikrlashini va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday mashg'ulotlar jarayonida bolalar turli materiallarning xususiyatlarini o'rganadi, ularni bir-biri bilan uyg'unlashtiradi va yangi g'oyalarni amalda qo'llashga harakat qiladi. Bu esa ularning ijodiy va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ekologik ta'limni STEAM texnologiyasi, interfaol metodlar va loyiha asosida o'qitish bilan integratsiyalash muhim hisoblanadi. Qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish aynan shu yondashuvlarga mos keladi. Chunki bolalar amaliy faoliyat davomida kuzatadi, tajriba qiladi, tahlil qiladi va yangi mahsulot yaratadi. Natijada ekologik kompetentlik bilan bir qatorda kommunikativ, ijodiy va ijtimoiy kompetensiyalar ham rivojlanadi.

Maktabgacha ta'lim jarayonida ekologik kompetentlikni rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar muhim pedagogik vosita hisoblanib, nazariy bilimlarini amaliy tajriba bilan bog'lash, ekologik madaniyatni shakllantirish hamda tabiatga nisbatan ongli munosabatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Amaliy mashg'ulotlarning asosiy turlaridan biri **applikatsiya ishlari** hisoblanadi. Ushbu faoliyat davomida bolalar rangli qog'oz, karton, gazeta va boshqa qayta ishlanadigan materiallardan foydalanib turli kompozitsiyalar yaratadilar. Bu jarayon bolalarda ijodkorlik, estetik did va mayda motorika ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, **ekolandshaft yaratish** mashg'ulotlari ham samarali usullardan biridir. Bunda bolalar tabiiy va qayta ishlanadigan materiallardan foydalanib tabiat manzarasi yoki ekologik muhitning kichik modelini yaratadilar. Mazkur faoliyat ekologik tafakkur, kuzatuvchanlik va tasavvur doirasini kengaytiradi. **Plastik idishlardan buyumlar yasash** amaliy mashg'ulotlari ham ekologik tarbiyada muhim o'rin tutadi. Bolalar plastik butilkalar va boshqa chiqindilardan gul tuvagi, qalamdon, o'yinchoq yoki foydali buyumlar tayyorlash orqali qayta foydalanish madaniyatini o'zlashtiradilar. Bundan tashqari, **noan'anaviy rasm chizish mashg'ulotlari** orqali barg, paxta, qog'oz bo'laklari va qopqoqlardan foydalanib turli tasvirlar yaratiladi. Ushbu usul bolalarning tasavvuri, estetik qarashi va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Amaliy faoliyat tarkibiga kuzatish va tajriba ishlari ham kiradi. O'simliklarni parvarish qilish, urug' ekish, suv va tabiat hodisalarini kuzatish orqali bolalarda ekologik tushunchalar va ilmiy qiziqish shakllanadi.

Tahlil va muhokama

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, ekologik tarbiya jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar va amaliy faoliyatlardan foydalanish bolalarning ekologik bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini samarali rivojlantiradi. Tahlillar davomida qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish bolalarning ekologik tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita ekanligi aniqlandi. Plastik idishlar, qog'oz, karton, qopqoqlar va boshqa ikkilamchi materiallardan foydalanishga asoslangan mashg'ulotlar bolalarda chiqindilarni qayta ishlash va resurslardan oqilona foydalanish haqidagi tushunchalarni shakllantiradi. Shu bilan birga, bunday faoliyat bolalarda ijodiy fikrlash, estetik did, muammoli vaziyatlarni hal qilish va mustaqil qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Kuzatuv natijalari ekologik yo'nalishdagi amaliy mashg'ulotlar bolalarning mashg'ulotlarga nisbatan motivatsiyasini oshirishini ko'rsatdi. Ayniqsa, ekologik tajribalar, kuzatishlar va noan'anaviy ijodiy faoliyatlar bolalarda tabiat hodisalariga qiziqish uyg'otadi. Masalan, o'simliklarni parvarish qilish, chiqindilarni saralash yoki qayta ishlash asosida buyumlar yaratish jarayonida bolalarda ekologik mas'uliyat hissi shakllanadi. Bu esa ekologik kompetentlikning amaliy jihatdan rivojlanishiga olib keladi. Shuningdek, ekologik kompetentlikni rivojlantirishda tarbiyachi va ota-onaning hamkorligi muhim pedagogik omil sifatida baholandi. Tadqiqot natijalari oilada ekologik muhitning mavjudligi bolaning ekologik madaniyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Agar ota-onalar ekologik odatlarga amal qilsalar, masalan, chiqindilarni saralash, suv va elektr energiyasini tejash, tabiatni asrashga oid faoliyatlarda ishtirok etsalar, bolalarda ham ushbu xatti-harakatlar barqaror shakllanadi. Demak, ekologik tarbiya samaradorligi ta'lim tashkiloti va oiladagi uzviy hamkorlikka bog'liqdir. Umuman olganda, olib borilgan tahlil va muhokamalar shuni ko'rsatadiki, qayta ishlanadigan materiallar asosida tashkil etilgan innovatsion faoliyatlar maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, qayta ishlanadigan materiallar plastik butilkalar, qog'oz bo'laklari, qopqoqlar, karton, paxta va boshqa qayta foydalanish mumkin bo'lgan materiallardan turli buyumlar yaratish orqali bolalar keraksiz narsalardan ham foydali foydalanish mumkinligini tushunib yetadilar. Bu esa ularda tejamkorlik,

tartiblilik va ekologik fikrlashni rivojlantiradi. Qayta ishlanadigan materiallar bilan tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlar bolalar uchun qiziqarli va ta'sirchan bo'ladi. Chunki bola o'zi yasagan buyum yoki rasm orqali ijodiy fikr yuritadi, ranglarni tanlaydi, shakllarni birlashtiradi va yangi g'oyalarni o'ylab topadi. Bunday faoliyat jarayonida bolalarning mayda motorikasi, tasavvuri, mustaqil fikrlashi va estetik didi rivojlanadi. Ayniqsa, noan'anaviy rasm chizish, applikasiya, kollaj va tajriba ishlari bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Ekologik yo'nalishdagi mashg'ulotlar orqali bolalar tabiatni asrashning ahamiyatini amaliy faoliyatda his qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanboyeva O., To'xtaboyeva M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2017. – 214-bet.
2. Nurmuhamedova Sh. Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 95-bet.
3. Abdullayeva Q. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2019. – 128-bet.
4. Rasulova M. Ekologik ta'lim asoslari. – Toshkent: Tafakkur, 2018. – 142-bet.
5. Xoliqov A. Pedagogik mahorat va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Universitet, 2021. – 167-bet.
6. Yo'ldosheva D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 84-bet.
7. Sharipova N. Ekologik madaniyat va tarbiya. – Samarqand: Zarafshon, 2020. – 119-bet.
8. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2016. – 203-bet.
9. Tojiboyeva M. Maktabgacha ta'limda interfaol metodlardan foydalanish. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2021. – 156-bet.